



## SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha)

2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona



Xususiy korxona



Aksiyadorlik jamiyat




Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik*



*xususiy korxona  
birlik*




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha)

2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

26  
aksiyadorlik  
jamiyati

144  
unitar korxona

280  
boshqalar

4 524  
oilaviy korxona

6 991  
xususiy korxona

8 899  
mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

**20 864**  
tijorat korxonalarini

### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirotchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida 6 488 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 702 ta, xususiy korxonalar – 1 032 ta, oilaviy korxonalar – 3 536 ta, muassasalar – 50 ta va boshqalar – 168 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 4 933 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 869 taga yoki 4,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 524 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 482 taga yoki 4,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 3 536 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 202 taga yoki 10,6 % martaga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 9 188 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 800 taga yoki 124,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 899 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 619 taga yoki 122,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 702 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 189 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 413 tani tashkil etib, ulardan 394 tasi yoki 95,4 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 87 taga yoki 128,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 51 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati  
cheklangan jamiyatlar soni  
(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni  
(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	3 377	4 380	5 565	7 280	8 899
<b><i>shu jumladan:</i></b>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	292	351	612	750	1 152
<b>Sanoat</b>	565	710	883	1 185	1 403
<b>Qurilish</b>	588	726	934	1 323	1 499
<b>Savdo</b>	1 126	1 367	1 641	2 196	2 775
<b>Tashish va saqlash</b>	384	478	517	579	622
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	131	176	207	281	343
<b>Axborot va aloqa</b>	66	72	78	97	108
<b>Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	36	35	64	88	101
<b>Boshqa turlar</b>	582	465	629	781	896

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni**  
*(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	55	60	139	307	394
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6	9	36	82	99
Sanoat	33	34	48	80	109
Qurilish	1	1	9	17	21
Savdo	2	6	25	84	118
Tashish va saqlash	5	4	7	7	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	2	14	17
Axborot va aloqa	1	1	1	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	1	3	4
Boshqa turlar	4	4	10	18	17

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
*(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni  
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<b><i>shundan:</i></b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>394</b>	<b>135</b>	<b>259</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>184</b>	<b>33</b>	<b>151</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>Angor</b>	<b>20</b>	<b>6</b>	<b>14</b>
<b>Bandixon</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<b>Boysun</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>15</b>	<b>6</b>	<b>9</b>
<b>Denov</b>	<b>13</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>14</b>	<b>10</b>	<b>4</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>13</b>	<b>7</b>	<b>6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>10</b>	<b>1</b>	<b>9</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>14</b>	<b>9</b>	<b>5</b>
<b>Termiz</b>	<b>39</b>	<b>15</b>	<b>24</b>
<b>Uzun</b>	<b>30</b>	<b>16</b>	<b>14</b>
<b>Sherobod</b>	<b>14</b>	<b>7</b>	<b>7</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>14</b>	<b>7</b>	<b>7</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahrida 184 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 46,7 %), Termiz 39 ta (9,9 %), Uzun 30 ta (7,6 %), Angor 20 ta (5,1 %), Muzrabot 15 ta (3,8 %), Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Sherobod va Sho'rchi 14 tadan (3,6 % dan), Denov va Qumqo'rg'on 13 tadan (3,3 % dan), Qiziriq 10 ta (2,5 %), Oltinsoy hamda Boysun 7 tadan (1,7 % dan) tumanlarida tashkil etadi.


## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,7 %), Denov (11,8 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Qumqo'rg'on (7,4 %), Sho'rchi (6,9 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,1 %), Uzun (5,4 %), Qiziriq (5,2 %), Sariosiyo (5,0 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,5 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Denov (12,7 %), Qumqo'rg'on (10,8 %), Termiz sh. (10,3 %), Jarqo'rg'on (7,7 %), Sho'rchi (7,7 %), Qiziriq (6,9 %), Sherobod (6,6 %), Termiz (5,7 %), Boysun (5,7 %), Uzun (5,1 %), Oltinsoy (5,0 %), Muzrabot (4,5 %), Sariosiyo (4,0 %), Angor (3,9 %) va Bandixon (3,4 %) ulushiga ega.



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,1 %), Termiz (9,5 %), Denov (9,3 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Boysun (5,8 %), Qumqo'rg'on (5,5 %), Sherobod (5,4 %), Qiziriq (5,2 %), Sho'rchi (5,1 %), Muzrabot (4,5 %), Angor (4,3 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,6 %) va Bandixon (1,5 %) ulushiga ega.


## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Qumqo'rg'on (12,8 %), Denov (11,3 %), Sherobod (9,1 %), Boysun (8,2 %), Qiziriq (8,1 %), Jarqo'rg'on (7,7 %), Oltinsoy (6,4 %), Sho'rchi (6,3 %), Uzun (6,3 %), Termiz (5,0 %), Termiz sh. (4,5 %), Muzrabot (4,2 %), Sariosiyo (4,0 %), Angor (3,2 %) va Bandixon (2,9 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main navigation menu includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar at the top right allows users to search by name ('Nomi') or registration number ('Kod'). A dropdown menu is open over the 'INTERAKTIV XIZMATLAR' link, showing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Usulby materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. The 'Korxona pasporti' option is highlighted. On the left, there's a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' with various statistical reports like 'E'lon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', etc. On the right, there's a column titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' with links to 'Ahollni ro'yxtagaga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**